



**O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy
munosabatlar**

**Социально-экономические отношения между Узбекистаном и
Южной Кореей**

Socio-economic relations between Uzbekistan and South Korea

Улашева Севинч

Студентка,

Ташкентский государственный университет востоковедения,

Ташкент, Узбекистан, ulashevasevinch@gmail.com

Ulashova Sevinch,

Student,

Tashkent State University of Oriental Studies,

Tashkent, Uzbekistan, ulashevasevinch@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Koreya va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro aloqalari ilk boshlanish davrida qanday bo‘lgani, hozirgacha qay daraja o‘zgarganligi va har ikki davlatning iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarining hozirgi kundagi ahamiyati haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Hamkorlik, savdo-sotiq, elchi, strategik-sheriklik, deklaratsiya, iqtisodiy, ta’lim

Аннотация: В статье описываются отношения между Кореей и Узбекистаном в начале, как они изменились до сих пор, а также современное значение экономических и социальных отношений обеих стран.

Ключевые слова: Сотрудничество, торговля, посол, стратегическое партнерство, декларация, экономика, образование.

Annotation: The article describes the relationship between Korea and Uzbekistan at the beginning, how it has changed so far, and the current importance of the economic and social relations of both countries.

Key words: Cooperation, trade, ambassador, strategic partnership, declaration, economic, education

Hozirgi kunda Janubiy Koreya rivojlangan va O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, har ikkala davlat ijtimoiy-



iqtisodiy javhalarda yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Shu munosabat bilan yildan-yilga ikkala davlat o'rtasida hamkorlik tobora rivojlanmoqda. Bu esa o'z navbatida, insoniyat jamiyatida o'zgarishlar va rivojlanishga keng yo'l ochmoqda. Barchamizga ma'lumki, so'nggi vaqtlarda yurtimiz 3- Renessans doirasida keskin rivojlanib, jahon reytinglarida yuqori o'rinlarni egallamoqda. Bunga misol qilib, foydali qazilmamiz bo'lmish oltinni qazib chiqarish bo'yicha O'zbekiston yiliga 101,6 tonna oltin qazib chiqarib, jahonda 8-o'rinni egallamoqda. Nafaqat foydali qazilmalari, balki ijtimoiy sohalarida ham yuqori o'rinlarda turadi. Masalan, sportning boks sohasida jahonda 2-o'rinni egallamoqda. Bunday natijalarni son mingta keltirsak bo'ladi. Bularning hammasi davlatimizning aholiga bo'lgan e'tibori va o'zaro hamkorliklarning samarasidan darak beradi. Rivojlanishlarning bir bo'g'ini sifatida mamlakatlararo hamkorliklarni ham olishimiz mumkin. Shu kunga qadar yurtimiz Xitoy, Rossiya, Hindiston, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlar bilan har sohada aloqalarini yaxshilamoqda. O'zaro munosabatlar haqida maqsad va rejalar 7 yillik "Harakatlar strategiyasi" da ham keltirib o'tilgan.

O'zbekistonning eng ilg'or hamkor davlati sifatida Janubiy Koreyani keltirishimiz mumkin. Chunki, ushbu davlat jahon iqtisodiyotlarining innovatsion taraqqiyotida birinchi o'rinni egallab, "Osiyo yo'lbarlari" sifatida tan olingan davlatlar ro'yxatiga kirgan davlat hisoblanadi. Janubiy Koreyaning eng asosiy xususiyatlaridan biri bu ta'lim sohasida ilg'orligi va aynan shu sohada dunyodagi barcha mamlakatlarga o'rnak bo'luvchi islohotlarni amalga oshirishidir. Shu tufayli ham Koreya muhandislik-quruvchilik sohalarida tashqari, ta'limda ham o'ziga qo'shni bo'lgan davlat bilan hamkorlik aloqalarini yaxshilamoqda.

Yuqorida keltirganimizdek, Janubiy Koreya O'zbekistonning asosiy hamkor davlatlaridan biri. Ammo, ushbu munosabatlar ilk marta qachon boshlangan? Tarixda ham bir-biridan ancha uzoq bo'lgan mamlakatlarning elchilik aloqalari bo'lgan-mi degan savol tug'iladi.

«Men O'zbekistonga kelayotganimda 1400 yil oldingi bir kunni yodga oldim. U qadimiy koreys davlati elchilari Samarqandga kelgan kundir. Otga yoki tuyaga minib dam olmasdan mashaqqat chekib kelishlariga ikki oycha vaqt ketgandir? Baland tog' tizmalari, adirlar va cho'llardan o'tib, qor va yomg'irda qolib, ba'zida jazirama va sovuq bilan kurashib uzoq vaqt sarflagan bo'lsalar kerak. Bugun siz azizlar kabi 1400 yil oldin O'zbekistonning qadimiy ahli ham uzoqdan kelgan mehmonlarni iliq kutib olgan. Mustahkam do'stlik va ishonch Afrosiyobning g'arbiy devoridagi suratda o'z aksini topgan. Garchi, Koreya va O'zbekiston bir-biridan uzoqda bo'lsa ham qadimiy koreys davlati davridan boshlab elchilari kelib

ketadigan do'st davlatlar bo'lgan»-,deydi **2019-yilning 18-aprelida Samarqandda mehmon bo'lgan Janubiy Koreyaning sobiq prezidenti Mun Je In.**

Janubiy Koreyaning elchilari o'rta asrlarda ham O'zbekiston hududida bo'lganidan dalolat beruvchi qoldiqlar Samarqandning Afrosiyob shahridagi devorlarda saqlanib qolgan. Qadimgi shaharning umumiy maydoni 219 gektarni tashkil qilib, ushbu maydonda 11ga yaqin tarixiy-madaniy qatlamlar borligi aniqlangan. 1965-yil Samarqand viloyati hududida qurilayotgan yangi yo'l ushbu shaharning topilishiga zamin yaratib bergan. 90-yillardan boshlab ana shu shahrning devordagi surat jahondagi ko'plab arxeolog, tarixchilar bir qator mamlakatlardagi ilmiy institutlarni o'ziga jalb eta boshladi. Negaki, ushbu devoriy suratlar ilk o'rta asr davrining nodir san'at asari, qadimgi So'g'diyona hayoti va madaniyati to'g'risida so'zlash bilan birga boshqa davlatlar madaniyatidan ham hikoya qiladi. Xususan, Afrosiyob shohi Varxumanning saroyida chizilgan deb hisoblanayotgan ushbu devoriy suratlarining «Elchilar xonasi» deb nomlangan qismi qadimgi davlatlar tarixiga yangilik kiritishi oydinlashdi. Yanayam aniqrog'i, devoriy suratda bir qator qadimiy davlatlar, jumladan, Koguryo davlatidan tashrif buyurgan elchilar surati ham tasvirlangan edi. Bu esa 6-7 asrlardayoq ikki davlat o'rtasida aloqalar mavjud bo'lganini tasdiqlaydigan juda muhim fakt edi. Hozirgi kunda ushbu joy Afrosiyob muzeyi sifatida saqlanib qolgan. Ushbu ma'lumotlar ikkala davlatning o'zaro hamkorliklari uzoq tarixga borib taqalishiga ishora qiladi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston eng avvalo Janubiy Koreya bilan aloqalarni o'rnatishga harakat qildi. Koreya Respublikasi 1991-yil 30-dekabrda Osiyo – Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. O'zbekiston bilan Koreya o'rtasida 1992-yil 29-yanvarda diplomatiya munosabatlari o'rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda keng hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. O'tgan 30 yil davomida davlat rahbarlari o'rtasida 17 marta oliy darajadagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning 1992, 1995, 1999-yillarda Koreya Respublikasiga va Koreya Respublikasi prezidentining 1994-yilda O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolangan hujjatlar o'zaro hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratdi. 1999-yilda o'zaro tovar aylanmasi hajmi salkam 526,8 mln. AQSH dollariga yetdi. Koreya Respublikasi O'zbekistondan paxta tolasi, ip gazlama, kalava ip, elektr asbob-uskuna, xom teri, ipak, kimyoviy o'g'it olib, O'zbekistonga transport vositalari, elektr va mexanik jihozlar, qora metall, kauchuk va rezina mahsulotlari, bo'yoqlar, turli xil jihoz va apparatlar, to'qimachilik mahsulotlari yuboradi.

Birinchi marta 1994-yildan buyon iqtisodiy hamkorlik va savdo-sotiq masalalari bo'yicha O'zbekiston-Koreya va Koreya-O'zbekiston qo'shma qo'mitasi ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Koreya Respublikasining 10 ta banki bilan vakillik munosabatlari o'rnatgan. O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-25-noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida bir qancha savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yildi. 2019-yilning 18-aprel kuni Koreya Respublikasining Prezidenti Mun Je Inning mamlakatimizga qilgan tashrifi doirasida esa o'zaro strategik sheriklik Qo'shma deklaratsiyasi imzolandi va 12 milliard dollardan ortiq bo'lgan kelishuvlar imzolandi. Ular energetika, neft-gaz, kimyo, tog'-kon sanoati, mashinasozlik, elektronika, to'qimachilik va yengil sanoat, transport va logistika, infratuzilma va raqamli tibbiyot kabi sohalarni qamrab oldi. Bulardan, xususan, "Angren" iqtisodiy zonasini "Inchon" erkin iqtisodiy zonasi boshqaruviga o'tkazish loyihasi alohida ahamiyatga ega. 2021-yili 28-yanvar kuni pandemiya tufayli ikki davlat prezidentlari videokonferensiya aloqasi orqali sammit o'tkazishadi. Online sammit yakunlari bo'yicha "to'rtinchi sanoat inqilobi"ni ilgari surish maqsadida "raqamlashtirish" sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum, Janubiy Koreya bilan Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish jamg'armasi (EDCF) bilan umumiy qiymati 1mlrd dollar bo'lgan kelishuvlari imzoland.

Xalqaro Hamkorlik bo'yicha Koreya Agentligi (KOICA)-Ushbu tashkilot 1991-yilda Janubiy Koreya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Taraqqiyotga Rasmiy Yordam (ODA) hukumat tashkiloti sifatida tashkil etilgan. KOICA maqsadi hukumatning grant yordami va texnik hamkorlik dasturlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlar uchun Janubiy Koreyaning grant yordam dasturlari samaradorligini oshirishdan iborat. KOICAgacha tashqi ishlar vazirining tavsiyasiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadigan uch yillik boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Tashkilot O'zbekistonga beg'araz asbob-uskunalar taqdim etish, mutaxassislar va xodimlarni Koreya Respublikasida o'qitish, koreys ekspertlari va ko'ngillilarni O'zbekistonga yuborish yo'nalishlarida amalga oshirmoqda. Xususan, 1995 – 2020-yillar mobaynida KOICA yo'nalishida O'zbekiston Respublikasiga ko'rsatilgan beg'araz yordamning umumiy hajmi 130 million AQSh dollarni tashkil qilib, mablag'lar sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot texnologiyalar, kommunal xo'jalik, qishloq va suv xo'jaligi, energetika sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishga maqsadida yo'naltirilgan. Shuningdek, bugungi kunga qadar KOICAning texnik hamkorligi doirasida O'zbekiston vazirliklari va idoralarning 2 000 dan ortiq vakillari Koreya Respublikasida tahsil oldi hamda 70 dan ortiq koreyalik ekspertlar

hamda 500 dan ortiq ko'ngillilari O'zbekistonda o'z missiyasini amalga oshirdi. 2007-yildan buyon davlatlarimiz o'rtasida mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik doirasida Bandlikka ruxsat berish tizimi bo'yicha 31,5 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarosi Janubiy Koreyaga yuborildi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada 17 mingga yaqin o'zbekistonliklar mehnat qilmoqda. Har yili Koreya hukumati tomonidan O'zbekiston uchun 3 – 3,2 ming kishi atrofida kvota ajratiladi. 2018-yil sentyabr oyida Koreyaning Kvanju shahrida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonasi tashkil etildi.

Janubiy Koreya yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, ta'lim sohasiga katta e'tibor qiladi. Shu tufayli, O'zbekiston bilan ham madaniy-gumanitar hamkorlik yo'nalishida ham bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, ta'lim sohasida Toshkentda 1992-yildan boshlab “ Koreya ta'lim markazi ” faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Markazda Koreyaning madaniyatiga oid raqs va cholg'u asboblari va koreys tilini o'rgatish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, markaz shu yilning o'zida Koreya Respublikasida joylashgan bir qancha universitetlar va ular taqdim etgan grandlar to'g'risida ma'lumot berish maqsadida ko'rgazma tashkil qildi. Har yili fevral va sentabr oylarida ko'plab talabalarimiz Janubiy Koreyada mutlaqo bepul o'qib ham stipendiya olish imkonini beradigan mamlakatning Milliy grand “GKS” ning bakalavr, magistratura va Phd yo'nalishlariga hujjat topshirib, bir qancha bosqichlardan o'tadi. Mahalliy oliygohlar Koreyaning 45 dan ortiq universitet, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib Sharq tillarini o'rgatayotgan Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti va Toshkent Davlat Jahon tillari Universitetida koreys tili va Koreya madaniyati, iqtisodiyoti o'rgatilib kelmoqda. O'zbekistonda Koreyaning Inxa (2-oktabr, 2014-yil), Puchon (2-iyul, 2018-yil), Yoju (30-noyabr, 2018) universitetlari va filiallari hamda Farg'onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil 1- fevralda esa Aju universitetining filiali ochildi. Toshkentda Koreya metodologiyasi bo'yicha tashkil etilgan 324-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritadi. Shuni ham aytib o'tishimiz kerak-ki, Janubiy Koreya universitetlari bilan tuzilgan memorandumlar tufayli, TOPIK (Koreys tilini bilish darajasini aniqlovchi test) darajasiga ega bo'lgan talabalar Koreyaga borib, tahsil olish imkoniyati yaratilmoqda.

Yuqorida keltirib o'tgan barcha misollar shu kungacha qilinganlar xolos, ammo, kelajakda bundan katta miqdordagi hamkorliklar O'zbekiston va Janubiy

Koreyaning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu esa o'z navbatida aholiga va har ikkala davlat migratlariga qulayliklar yaratdi. Birinchi navbatda, investitsiyalar orqali tashkil etilgan korxonalar aholini ish bilan ta'minlab, ishsizlik foizini kamaytiradi va nafaqat xalq, balki davlatning ham boy bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, ikki davlatning migratlari mamlakat hududlarida erkin yashash va imkoniyatlar olish huquqini ko'paytiradi. Janubiy Koreya aholisini O'zbekiston hududiga, O'zbekiston aholisini Janubiy Koreya hududiga erkin kirib chiqishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [„Корея Миллий ассамблеяси спикери Ўзбекистонга келди — фото“](#). *Bugun.uz*. Qaraldi: 5-aprel 2021-yil.
2. [„Шавкат Мирзиёев Корея парламенти миллий ассамблея спикерини қабул қилди“](#). *Bugun.uz*. Qaraldi: 6-aprel 2021-yil.
3. Xurshidbek Samiyev. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlik natijalari. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorliknatijalari>.
4. Obid Hakimov “The Korea Post” jurnali. O'zbekiston Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. <https://review.uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogosotrudnichestva>
5. Sanjar Said. O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari: tenglik, do'stlik, hamjihatlik. <https://kun.uz/uz/news/2015/11/06/ozbekiston-janubiy-koreya-munosabatlari-tenglikdostlik-hamjihatlik>
4. Мусаев Б. Меҳнат ҳуқуқи: уни ҳимоя қилиш борасида. Ўзбекистон ва Корея Республикаси ҳамкорлиги.-Тошкент: 2017. –Б. 76.
5. Kamoliddin, M. (2020). Conceptual approach to democratization of public administration. *Russia and the moslem world*, (2 (308)), 66-76.